



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari. | 7 |
| Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari. | 11 |
| Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране..... | 15 |
| Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar..... | 19 |
| Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish..... | 23 |
| Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash..... | 30 |
| O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili..... | 34 |
| Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan)..... | 44 |
| Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari..... | 48 |
| Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari..... | 53 |
| Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari..... | 58 |
| Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar..... | 63 |
| Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi..... | 68 |
| Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili..... | 72 |
| Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri..... | 77 |
| Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari..... | 81 |
| Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi..... | 85 |
| Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari..... | 88 |
| Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities..... | 92 |
| Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии..... | 95 |
| Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish..... | 104 |
| Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari..... | 109 |
| Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari | 114 |
| Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari..... | 117 |
| To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli..... | 123 |
| Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash..... | 127 |
| Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli..... | 131 |
| To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari..... | 133 |
| Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari..... | 141 |
| Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar..... | 145 |
| Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan..... | 151 |
| Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili..... | 154 |
| Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari..... | 161 |

| | |
|--|------------|
| Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli..... | 166 |
| Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish..... | 170 |
| Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish..... | 174 |
| Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari..... | 180 |
| Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi..... | 184 |
| Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish | 187 |
| O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari..... | 192 |
| Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish..... | 197 |
| Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги..... | 201 |
| Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi..... | 205 |
| Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati..... | 210 |
| Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари..... | 214 |
| Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari.. | 217 |
| Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari..... | 222 |
| Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari..... | 227 |
| Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари..... | 232 |
| Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises..... | 237 |
| Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari..... | 242 |
| Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil..... | 245 |
| Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi..... | 249 |
| Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике..... | 258 |
| Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash..... | 269 |
| Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish..... | 274 |
| Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens..... | 278 |
| Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari..... | 282 |
| G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari..... | 286 |
| Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари..... | 289 |
| Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari..... | 294 |
| Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri..... | 299 |
| Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish..... | 305 |
| Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл..... | 312 |
| Tajiboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari..... | 316 |
| Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida)..... | 319 |

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA INQIROZNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA DIAGNOSTIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

АНАЛИЗ СТАДИЙ ФОРМИРОВАНИЯ КРИЗИСА И ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.

ANALYSIS OF THE STAGES OF CRISIS FORMATION AND DIAGNOSTIC INDICATORS AT ENTERPRISES OF THE BUILDING MATERIALS INDUSTRY

O‘rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti “Buxgalteriya hisobi va moliya” kafedrasida o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0001-9876-3780

Annotatsiya

Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqotning asosiy e‘tibori inqirozning dastlabki belgilari paydo bo‘lishi, ularning rivojlanish ketma-ketligi hamda korxonada faoliyatida kuzatiladigan moliyaviy va xo‘jalik holati ko‘rsatkichlari orqali inqirozni erta aniqlash masalalariga qaratilgan. Maqolada inqiroz bosqichlarini ajratish va ularni tashxislashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar mazmuni hamda ularning tahliliy imkoniyatlari izohlanadi. Natijada, korxonada boshqaruvida inqirozga olib keluvchi holatlarni o‘z vaqtida ko‘rish va baholashga xizmat qiladigan umumiy diagnostik yondashuvni shakllantirish zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari sanoati, korxonada faoliyati, inqiroz jarayoni, inqiroz bosqichlari, inqiroz diagnostika, simoliyaviy ko‘rsatkichlar, xo‘jalik faoliyati, iqtisodiy tahlil, likvidlik, rentabellik, boshqaruv qarorlari, barqarorlik

В статье рассматриваются этапы формирования кризиса на предприятиях промышленности строительных материалов и возможности его ранней диагностики на основе анализа показателей деятельности предприятия. Основное внимание уделено последовательности проявления кризисных признаков и их отражению в финансово-экономическом состоянии и хозяйственных процессах. Раскрывается содержание диагностических показателей, применяемых для выявления и оценки кризисных явлений на разных стадиях, а также их аналитическая роль в управленческих решениях. В результате обосновывается необходимость системного подхода к диагностике, позволяющего своевременно фиксировать ухудшение состояния предприятия и оценивать динамику развития кризиса.

Ключевые слова: промышленность строительных материалов, деятельность предприятия, кризисный процесс, стадии кризиса, диагностика кризиса, финансовые показатели, хозяйственная деятельность, экономический анализ, ликвидность, рентабельность, управленческие решения, устойчивость

This article examines the stages of crisis formation in construction materials manufacturing enterprises and discusses the role of diagnostic indicators in early crisis identification. The focus is placed on how crisis signs emerge and develop over time, and how they are reflected in an enterprise’s financial and operational performance. The paper explains the analytical meaning of key diagnostic indicators used to assess crisis conditions across different stages and highlights their relevance for managerial decision-making. As a result, the study emphasizes the need for a systematic diagnostic approach that enables timely detection of deterioration and supports a more informed evaluation of crisis dynamics.

Keywords: construction materials industry, enterprise performance, crisis process, stages of crisis, crisis diagnostics, financial indicators, operational activite, economic analysis, liquidity, profitability, managerial decision-making, stability

Qurilish materiallari sanoati korxonalari milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, infratuzilma loyihalaridan tortib uy-joy qurilishgacha bo‘lgan keng sohalarda tovarlar yetkazib beradi. Ushbu tarmoqning faoliyati iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek uzluksiz ishlab chiqarish va barqaror ishchi mexanizmlarini talab etadi. [1] Qurilish materiallari sanoatining samarali ishlashi, korxonalar darajasidagi raqobatbardoshlik va ishlab chiqarish sifati orqali milliy bozorning talabini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Moliyaviy va iqtisodiy sharoitlarning o‘zgarishi, xususan global va mintaqaviy inqirozlar yoki xarajatlar dinamikasidagi o‘zgarishlar qurilish materiallari korxonalarini bevosita ta‘siriga uchratadi. Korxonada darajasida bu ta‘sir avvalo ko‘rsatkichlarning buzilishi va moliyaviy barqarorlikning pasayishida namoyon bo‘ladi. Masalan, qurilish sohasidagi korxonalar moliyaviy likvidlikni yetarlicha ta‘minlay olmaganda ularning bozordagi pozitsiyasi zaiflashadi va o‘shish sur‘atlari pasayadi. [2]

Korxonalar inqirozga kirib borayotganini vaqtida aniqlash va unga mos choralar ko‘rish, boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishda diagnostika mexanizmlari katta ahamiyat kasb etadi. Sohadagi tadqiqotlar korxonalar faoliyatining turli indikatorlar orqali baholanishi, moliyaviy salomatlikni tahlil qilish, shu jumladan likvidlik va rentabellik ko‘rsatkichlarini aniqlash orqali erta ogohlantirish tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatmoqda. [3]

Shuningdek, qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv jarayonlari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ham izchil tadqiq etilmoqda. Bu tadqiqotlar korxonalar boshqaruvi samaradorligi, strategik boshqaruv omillari va ularning natijalari haqida amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. [4] Ushbu ilmiy yondashuvlar korxonada darajasidagi inqiroz jarayonini tizimli ravishda tushunish va uning shakllanish bosqichlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shu boisdan ham qaror qabul qilish va boshqaruvning amaliy jihatlari sifatida inqirozni erta aniqlash uchun kompleks ko‘rsatkichlardan foydalanish muhim ilmiy va amaliy masalaga aylanmoqda. Bu yondashuv korxonada faoliyatidagi zaifliklarni erta bosqichda aniqlash va muammolarga nisbatan samarali choralar ko‘rishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy va xo‘jalik faoliyati jarayonlari hamda ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui olinadi. Tadqiqot doirasida korxonalarining resurslardan foydalanish mexanizmi, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligi, moliyaviy barqarorligi, to‘lovga qobiliyatligi hamda boshqaruv qarorlari natijasida shakllanadigan iqtisodiy holati o‘rganiladi. Shuningdek, korxonada faoliyatida inqiroz holatining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va chuqurlashuvi bilan bog‘liq jarayonlar ham tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning predmeti qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish mexanizmi, uning bosqichlari hamda mazkur jarayonni aniqlash va baholashga xizmat qiluvchi moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi va diagnostik tahlil usullaridan iborat. Predmet doirasida inqiroz jarayonining korxonada ichki faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligi, moliyaviy natijalar va boshqaruv samaradorligiga ta‘siri, shuningdek inqirozni erta aniqlashga qaratilgan tahliliy yondashuvlar o‘rganiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayonini nazariy va amaliy jihatdan tizimli ravishda tahlil qilish, uning bosqichlarini aniqlash hamda korxonada faoliyatini baholashda qo‘llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida inqirozni erta aniqlashga imkon beruvchi ilmiy asoslangan diagnostik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari (4 ta integrallashgan yo‘nalishda)

Tadqiqotning belgilangan maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Nazariy-metodologik asoslarni shakllantirish

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyat xususiyatlarini, ularning inqirozga moyillik omillarini hamda inqiroz tushunchasining iqtisodiy mazmunini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish va umumlashtirish.

2. Inqirozning shakllanish bosqichlarini tizimlashtirish

Korxonada darajasida inqirozning yuzaga kelish va rivojlanish jarayonlarini o‘rganish, uning bosqichlarini aniqlash hamda ichki va tashqi omillar ta’sirini baholash.

3. Diagnostik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va baholash

Korxonada faoliyatini tavsiflovchi moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (likvidlik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik, xo‘jalik samaradorligi va boshqalar)ning inqiroz shakllanishidagi o‘rnini aniqlash hamda inqirozni erta aniqlashga xizmat qiluvchi tahliliy yondashuvni ishlab chiqish.

4. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

Inqirozning oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash hamda qurilish materiallari sanoati korxonalarida barqarorlikni ta’minlashga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayonlarini o‘rganish bir nechta ilmiy yo‘nalishlar kesishgan nuqtada shakllangan: inqiroz nazariyasi, korporativ moliyaviy tahlil, risk-menejment va tarmoq iqtisodiyoti.

1. Inqiroz va inqiroz boshqaruvi nazariyasi

Inqiroz jarayonlari korxonada faoliyatida bosqichma-bosqich rivojlanadigan murakkab hodisa sifatida talqin etiladi. C. Pearson va J. Clair inqirozni tashkilot barqarorligiga tahdid soluvchi va tezkor boshqaruv aralashuvini talab qiluvchi vaziyat sifatida izohlaydi. [5] Ularning yondashuvida inqiroz faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar yomonlashuvi emas, balki boshqaruv tizimidagi nomutanosiblik natijasi sifatida ko‘riladi.

J. Bundy va hammualliflar inqirozni strategik, tashkiliy va kommunikatsion jarayonlar bilan bog‘liq tizimli hodisa sifatida o‘rganadi. [6] Ularning tadqiqotlarida inqirozning oldini olish va boshqarishda erta diagnostika va monitoring muhimligi alohida ta’kidlanadi.

Mazkur yondashuvlar qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqiroz jarayonini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki boshqaruv va tashkiliy omillar bilan ham bog‘liq holda tahlil qilish zaruratini asoslaydi.

2. Moliyaviy diagnostika va bankrotlikni prognozlash modellari

Korxonada darajasida inqirozni aniqlash masalasi moliyaviy ko‘rsatkichlar tahliliga asoslangan. E. Altman tomonidan taklif etilgan Z-score modeli bankrotlik xavfini baholashning klassik vositasi sifatida e’tirof etiladi. [7] Ushbu model moliyaviy koeffitsiyentlar tizimi asosida korxonaning to‘lovga qobiliyatligini baholash imkonini beradi.

Moliyaviy tahlilning zamonaviy yondashuvlari likvidlik, rentabellik, aktivlar aylanishi va kapital tuzilmasi ko‘rsatkichlarini kompleks baholashga asoslanadi. Brigham va Ehrhardt korxonada moliyaviy barqarorligini baholashda ko‘rsatkichlar tizimining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish muhimligini qayd etadi. [8]

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida yuqori kapital sig‘imi va uzoq ishlab chiqarish sikli sababli moliyaviy oqimlarni to‘g‘ri boshqarish inqiroz xavfini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

3. Qurilish sohasida inqiroz va risklarni boshqarish

Qurilish sohasi o‘zining murakkab tashkiliy tuzilmasi, ko‘p bosqichli ishlab chiqarish jarayoni va tashqi muhitga yuqori bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Hällgren va Wilson qurilish loyihalarida inqiroz ko‘pincha risklarni noto‘g‘ri boshqarish natijasida yuzaga kelishini ta’kidlaydi. [9]

Xalqaro standartlar, xususan ISO 31000 risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilishni korxonada boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida belgilaydi. [10] Bu yondashuv inqirozni boshqarishdan ko‘ra uning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat beradi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida uchun xomashyo narxlarining o‘zgarishi, energiya xarajatlarining oshishi va bozor talabining pasayishi kabi omillar inqiroz shakllanishini tezlashtiruvchi asosiy tashqi omillar sifatida qayd etiladi.

4. Ilmiy bo‘shliq va tadqiqot zarurati

Mavjud adabiyotlar inqiroz boshqaruvi, moliyaviy diagnostika va risk-menejment masalalarini keng yoritgan bo‘lsa-da, qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning aynan shakllanish bosqichlari va ularni diagnostik ko‘rsatkichlar tizimi orqali kompleks baholash masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Aksariyat tadqiqotlar umumiy korporativ yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan integrallashgan model kam o‘rganilgan. Shu sababli mazkur tadqiqot qurilish materiallari sanoati korxonalariga xos inqiroz shakllanish mexanizmini aniqlash va diagnostik ko‘rsatkichlar tizimini taklif etish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Muallif olib chiqayotgan masalaning o‘ziga xosligi shundaki, Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqiroz jarayonlarini o‘rganish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda umumiy inqiroz boshqaruvi, moliyaviy diagnostika yoki risk-menejment doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa-da, mazkur tadqiqot ushbu masalani aynan tarmoq xususiyatlari kesimida, kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilishi bilan ajralib turadi.

Birinchidan, tadqiqotda inqiroz jarayoni umumiy korporativ yondashuv doirasida emas, balki qurilish materiallari sanoatining o‘ziga xos iqtisodiy, texnologik va bozor xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Mazkur tarmoqning kapital sig‘imi yuqoriligi, ishlab chiqarish jarayonining energiya va xomashyo resurslariga bog‘liqligi hamda talabning siklik xarakteri inqiroz shakllanish mexanizmini boshqa tarmoqlardan farqlaydi.

Ikkinchidan, tadqiqotda inqirozning shakllanish bosqichlari aniqlanib, ular moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi. Aksariyat tadqiqotlarda bankrotlik yoki moliyaviy tanglik yakuniy natija sifatida baholansa, mazkur ishda inqiroz jarayoni dinamik hodisa sifatida ko‘rib, uning erta bosqichlarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratiladi.

Uchinchidan, muallif tomonidan taklif etilayotgan yondashuv moliyaviy ko‘rsatkichlar (likvidlik, rentabellik, moliyaviy barqarorlik va boshqalar)ni faqat statik baholash bilan cheklanmay, ularning o‘zgarish tendensiyalarini ham tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu esa inqirozni faqat mavjud holat sifatida emas, balki rivojlanayotgan jarayon sifatida baholash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, tadqiqotda inqiroz shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqilib, tarmoq sharoitida ularning integrallashgan ta’siri ochib beriladi. Bu yondashuv korxonada faoliyatini faqat ichki ko‘rsatkichlar asosida emas, balki makroiqtisodiy va bozor omillari bilan uyg‘un holda baholash zaruratini asoslaydi.

Natijada, mazkur tadqiqot qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayonini kompleks, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv asosida o‘rganishi, diagnostik ko‘rsatkichlar tizimini aniqlashtirishi hamda inqirozni erta aniqlashga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvni taklif etishi bilan o‘ziga xos ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiyotning real sektoriga kiradi va bevosita qurilish bozoridagi faollikka bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Mazkur tarmoqning asosiy xususiyati shundaki, u yuqori kapital sig‘imiga ega: ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik liniyalar, energiya ta’minoti va logistika infratuzilmasi katta miqdordagi investitsiyalarni talab qiladi. Shu bois ishlab chiqarish hajmining qisqarishi yoki talabning pasayishi korxonaning moliyaviy holatiga tez va sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda inqiroz ko‘pincha birdaniga yuzaga keladigan holat emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida talqin etiladi. Pearson va Clair (1998) inqirozni tashkilot barqarorligiga tahdid soluvchi, boshqaruv tizimidagi zaifliklarni yuzaga chiqaruvchi jarayon sifatida izohlaydi. [11] Ularning fikricha, inqiroz ko‘pincha dastlab sezilmaydigan ichki nomutanosibliklar bilan boshlanadi.

Bunday va hammualliflar (2017) esa inqirozning shakllanishi oldindan kuzatiladigan belgilar orqali namoyon bo‘lishini ta’kidlab, boshqaruv tizimining erta ogohlantirish mexanizmlariga ega bo‘lishi zarurligini qayd etadi. [12] Bu yondashuv qurilish materiallari sanoati korxonalarida uchun ayniqsa dolzarbdir, chunki tarmoq tashqi omillarga juda sezgir.

O‘zbekiston sharoitida qurilish hajmlarining o‘zgarishi bevosita qurilish materiallari ishlab chiqarishiga ta’sir qiladi. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, qurilish ishlari hajmidagi o‘zgarishlar sanoat ishlab chiqarishi tarkibida ham aks etadi. [13] Agar qurilish bozorida talab

pasaysa, sement, g‘isht, metall konstruksiyalar va boshqa materiallarga bo‘lgan ehtiyoj ham kamayadi. Natijada ishlab chiqarish hajmi qisqaradi va ombor zaxiralari ortib ketadi.

Qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishining o‘ziga xos jihatlaridan biri – energiya va xomashyo xarajatlarining yuqori ulushidir. Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, sanoat korxonalarini uchun energiya resurslari ishlab chiqarish tannarxida muhim o‘rin tutadi. [14] Energiya tariflari yoki xomashyo narxlarining oshishi rentabellikni pasaytirishi va moliyaviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari sanoatida inqiroz quyidagi belgilar orqali namoyon bo‘ladi:

ishlab chiqarish hajmining qisqarishi; tayyor mahsulot zaxiralari ortib ketishi; aylanma mablag‘lar yetishmovchiligi; xarajatlar ulushining oshishi; kredit yuklamasining ortishi.

Bunday holatlarda korxonaning likvidligi pasayadi, qarzдорlik ortadi va moliyaviy xavf darajasi oshadi. Brigham va Ehrhardt (2016) moliyaviy barqarorlikning izchil pasayishi uzoq muddatda korxonaning faoliyatini izdan chiqarishini ta’kidlaydi. [15]

Shunday qilib, qurilish materiallari sanoatida inqirozning shakllanishi ko‘pincha tashqi iqtisodiy omillar (bozor talabi, inflyatsiya, energiya narxlari) bilan boshlanib, ichki moliyaviy muammolar (likvidlik tanqisligi, rentabellikning pasayishi, qarzдорlikning ortishi) orqali chuqurlashadi. Mazkur jarayonni o‘z vaqtida aniqlash va baholash korxonaning barqarorligini saqlab qolishning muhim shartidir.

Korxonaning faoliyatini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar eng asosiy diagnostik vosita hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, inqiroz birdaniga yuzaga kelmaydi — u avvalo moliyaviy natijalardagi salbiy o‘zgarishlar orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois moliyaviy hisobotlarni tizimli tahlil qilish korxonaning barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Brigham va Ehrhardt (2016) moliyaviy ko‘rsatkichlarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda baholash zarurligini ta’kidlaydi. [16] Ularning fikricha, likvidlik, rentabellik va kapital tuzilmasi o‘rtasidagi muvozanat buzilganda korxonaning moliyaviy xavf zonasiga kirib boradi.

Qurilish materiallari sanoatida bu jarayon ayniqsa tez seziladi. Sababi — ishlab chiqarish quvvatlari katta, xarajatlar yuqori va aylanma mablag‘lar hajmi sezilarli bo‘ladi. Shuning uchun moliyaviy ko‘rsatkichlardagi kichik o‘zgarish ham jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Likvidlik korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Agar joriy aktivlar qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yetmasa, korxonaning to‘lov intizomini yo‘qota boshlaydi. Bu esa kredit reytingining pasayishiga va moliyalashtirish manbalarining qisqarishiga olib keladi.

Altman (1968) moliyaviy ko‘rsatkichlar, jumladan likvidlik darajasi bankrotlik xavfini prognoz qilishda muhim o‘rin tutishini isbotlagan. [17] Uning tadqiqotlari korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari pasayishi inqirozning erta belgisi ekanligini ko‘rsatadi.

Rentabellik ishlab chiqarish samaradorligini ifodalaydi. Qurilish materiallari sanoatida tannarxning oshishi yoki sotuv hajmining kamayishi foyda marjasining qisqarishiga olib keladi. Rentabellikning izchil pasayishi korxonaning investitsion jozibadorligini susaytiradi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Moliyaviy menejment nazariyasida rentabellikning barqarorligi korxonaning strategik barqarorligining asosiy sharti sifatida qaraladi [1].

Qurilish materiallari sanoati ko‘pincha kredit resurslaridan faol foydalanadi. Investitsiya loyihalari va ishlab chiqarish modernizatsiyasi katta mablag‘ talab qiladi. Agar qarz yuklamasi haddan tashqari oshsa, foiz to‘lovlari korxonaning xarajatlarining sezilarli qismini egallaydi va moliyaviy xavf kuchayadi.

Xalqaro amaliyotda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari kapital tuzilmasi va qarz ulushi orqali baholanadi. Moliyaviy mustaqillik darajasining pasayishi inqiroz ehtimolini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. [18]

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlarida real sektor korxonalariga kreditlash hajmi va foiz stavkalari dinamikasi muntazam yoritiladi. [19] Kredit resurslari qiymatining o‘zgarishi qurilish materiallari sanoati korxonalarining moliyaviy yuklamasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, sanoat ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi korxonalar rentabelligi va moliyaviy natijalariga ta'sir etadi. [20] Qurilish hajmlarining pasayishi sotuv tushumining kamayishiga olib kelib, likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlarining yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan, qurilish materiallari sanoatida inqirozni aniqlashda quyidagi belgilar muhimdir: likvidlikning pasayishi — qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash muammosi; rentabellikning kamayishi — ishlab chiqarish samaradorligining susayishi; qarzdorlikning ortishi — moliyaviy xavf darajasining oshishi; pul oqimlarining uzilishi — operatsion faoliyatdagi nomutanosiblik.

Altman yondashuvi moliyaviy ko'rsatkichlar dinamikasi bankrotlik xavfini oldindan aniqlash mumkinligini ko'rsatadi. [21] Biroq, qurilish sohasida inqiroz faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki bozor talabi, energiya xarajatlari va investitsiya faolligi bilan ham bog'liqdir. Shu sababli moliyaviy tahlil bozor omillari bilan uyg'un holda olib borilishi lozim.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar va O'zbekiston sharoitidagi iqtisodiy holat tahlilidan kelib chiqib, muallifning fikricha, qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanishi ko'pincha moliyaviy ko'rsatkichlarning keskin yomonlashuvi bilan emas, balki ularning asta-sekin va tizimli pasayishi orqali namoyon bo'ladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, likvidlik darajasining pasayishi va rentabellikning kamayishi dastlab jiddiy xavf sifatida baholanmaydi. Biroq aynan shu bosqichda zarur choralar ko'rilmasa, qarzdorlik ortishi va pul oqimlaridagi uzilishlar inqirozning chuqurlashishiga olib keladi. Shu sababli qurilish materiallari sanoatida moliyaviy ko'rsatkichlarni faqat hisobot davri yakunida emas, balki dinamik o'zgarishlar asosida muntazam monitoring qilish zarur.

Muallifning qarashicha, mazkur tarmoqda inqirozni aniqlashning samarali mexanizmi moliyaviy ko'rsatkichlarni bozor sharoiti, energiya xarajatlari va investitsiya faolligi bilan uyg'un holda tahlil qilishga asoslanishi lozim. Chunki qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida yopiq tizim emas — ular tashqi iqtisodiy muhitga bevosita bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Shuningdek, O'zbekiston sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan boshqaruv intizomi va strategik rejalashtirish darajasiga bog'liq. Shuning uchun inqirozning oldini olish faqat moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash bilan emas, balki boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ham amalga oshirilishi zarur.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqiroz shakllanishi odatda bitta omil bilan emas, balki ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, korxonada ichidagi muammolar tashqi iqtisodiy bosimlar bilan qo'shilganda inqiroz jarayoni tezlashadi va chuqurlashadi.

Hällgren va Wilson (2008) qurilish loyihalarida inqiroz ko'pincha risklarni noto'g'ri boshqarish, xarajatlarni nazorat qilmaslik va boshqaruv qarorlaridagi sustkashlik natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. [22] Ularning fikricha, inqiroz ko'pincha boshqaruv tizimidagi zaifliklar orqali boshlanadi va keyinchalik moliyaviy muammolarga aylanadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishda ichki omillar quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: ishlab chiqarish tannarxining oshishi (energiya, xomashyo, logistika xarajatlari ortishi); boshqaruv qarorlarining samarasizligi; moliyaviy rejalashtirish va pul oqimlarini boshqarishning yetarli emasligi; resurslardan samarasiz foydalanish.

Bunday holatlarda korxonada ichki barqarorligini yo'qota boshlaydi. Agar xarajatlar o'sishi foyda o'sishidan tezroq bo'lsa, rentabellik pasayadi va moliyaviy xavf ortadi.

Tashqi omillar esa ko'pincha korxonada nazoratidan tashqarida bo'ladi. O'zbekiston sharoitida quyidagilar muhim hisoblanadi: qurilish bozorida talabning pasayishi; energiya va xomashyo narxlarining oshishi; kredit resurslari qiymatining o'zgarishi; inflyatsion jarayonlar.

Markaziy bank hisobotlarida kredit stavkalari va inflyatsiya dinamikasining real sektor korxonalariga ta'siri qayd etiladi. [23] Energetika vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, sanoatda energiya resurslari ishlab chiqarish tannarxida muhim ulushni egallaydi. [24] Demak, tashqi xarajat omillarining o'zgarishi bevosita ichki moliyaviy natijalarga ta'sir ko'rsatadi.

ISO 31000 standarti risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarini boshqaruv tizimiga integratsiya qilish zarurligini belgilaydi. [25] Bu yondashuv inqirozni boshqarishdan ko‘ra uni oldindan aniqlash va profilaktik choralar ko‘rish samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Xorijiy olimlar inqirozni ko‘proq strategik va tashkiliy jarayon sifatida talqin etadi. Bunday va boshqalar (2017) inqirozning ildizi ko‘pincha boshqaruv tizimidagi nomutanosibliklarda ekanligini qayd etadi. [26] Ularning yondashuvida inqiroz — bu strategik boshqaruvdagi xatolar natijasi sifatida ko‘riladi.

O‘zbekiston iqtisodchi olimlari esa real sektor korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda likvidlik, kapital tuzilmasi va moliyaviy intizomni asosiy omil sifatida baholaydi. Xususan, S. G‘ulomov va boshqalar korxonalar barqarorligi ko‘p jihatdan moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish va qarz yuklamasini nazorat qilishga bog‘liq ekanligini ta‘kidlaydi. [27]

Shu jihatdan, xorijiy va milliy yondashuvlarni taqqoslaganda quyidagi xulosa kelib chiqadi:

- xorijiy adabiyotlarda inqiroz ko‘proq strategik boshqaruv muammosi sifatida;
- milliy tadqiqotlarda esa moliyaviy barqarorlik va likvidlik muammosi sifatida talqin etiladi.

Muallifning fikricha, qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozni baholashda mazkur ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish zarur. Ya‘ni, moliyaviy ko‘rsatkichlarni tahlil qilish bilan birga, boshqaruv samaradorligi va bozor omillari ham kompleks tarzda baholanishi lozim. Faqat shunda inqirozning shakllanish mexanizmi to‘liq ochib berilishi mumkin.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich va o‘zaro bog‘liq omillar ta‘siri ostida rivojlanadi. Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar hamda O‘zbekiston sharoitidagi iqtisodiy omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur tarmoqda inqiroz ko‘pincha tashqi iqtisodiy bosimlar bilan boshlanib, ichki moliyaviy nomutanosibliklar orqali chuqurlashadi.

1-jadval

Qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishining bosqichli dinamikasi

| № | Bosqich nomi | Asosiy tavsifi | Kuzatiladigan belgilar | Korxonalar faoliyatiga ta‘siri |
|----------|---|--|---|---|
| 1 | Bozor omillari bosqichi | Tashqi iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlar ta‘sirida inqiroz jarayonining boshlanishi | Qurilish hajmlarining pasayishi; investitsion faollikning kamayishi; energiya va xomashyo narxlarining oshishi | Sotuv bozorining torayishi; ishlab chiqarish rejalari qayta ko‘rib chiqilishi |
| 2 | Moliyaviy bosqich | Bozor bosimi natijasida moliyaviy ko‘rsatkichlar yomonlashuvi | Sotuv tushumining kamayishi; rentabellikning pasayishi; likvidlik darajasining yomonlashuvi | Moliyaviy barqarorlikning susayishi; aylanma mablag‘lar yetishmovchiligi |
| 3 | Barqarorlikning buzilishi bosqichi | Moliyaviy nomutanosibliklarning chuqurlashuvi | Qarzdorlikning ortishi; pul oqimlarida uzilishlar; kredit yuklamasining oshishi | Moliyaviy xavf darajasining kuchayishi; operatsion faoliyatda cheklanishlar |
| 4 | Chuqurlashgan inqiroz bosqichi | Korxonalar faoliyatining keskin izdan chiqishi | To‘lovga qobiliyatsizlik; ishlab chiqarish hajmining keskin qisqarishi; majburiyatlarni bajarishdagi uzilishlar | Bankrotlik xavfi; bozor pozitsiyasining yo‘qolishi |

Bu jarayon xorijiy olimlar tomonidan inqirozning tizimli rivojlanish modeli sifatida tavsiflangan yondashuvlarga mos keladi. [28]

Bu holat Altman tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida bankrotlik xavfini prognozlash konsepsiyasiga mos keladi. [29] Biroq qurilish materiallari sanoatida inqiroz faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki bozor talabining o‘zgarishi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

3. Ichki va tashqi omillarning integrallashgan ta’siri

O‘zbekiston sharoitida energiya xarajatlari, kredit resurslari qiymati va qurilish bozorida talab o‘zgarishlari korxonalar moliyaviy natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. [30] Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi omillar bosimi kuchayganda ichki boshqaruv samaradorligi past bo‘lgan korxonalar tezroq inqiroz bosqichiga o‘tadi.

2-jadval

Moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasining tahlili

| № | Moliyaviy ko‘rsatkich | Moliyaviy ko‘rsatkich | Moliyaviy ko‘rsatkich | Inqiroz xavfi darajasi |
|----------|------------------------------|------------------------------|---|--|
| 1 | Joriy likvidlik | Pasayishi | Qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qobiliyati susayadi | Boshlang‘ich xavf belgisi |
| 2 | Foyda marjasi (rentabellik) | Qisqarishi | Ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi, xarajatlar ulushi ortadi | Moliyaviy beqarorlik bosqichi |
| 3 | Ishlab chiqarish tannarxi | Oshishi | Oshishi | Rentabellikka salbiy bosim |
| 4 | Ombor zaxiralari hajmi | Ortiqcha to‘planishi | Talab pasayganini yoki sotuv sustlashganini ko‘rsatadi | Talab pasayganini yoki sotuv sustlashganini ko‘rsatadi |

Aksincha, moliyaviy intizomi mustahkam, xarajatlarni nazorat qiluvchi va risklarni monitoring qiluvchi korxonalar tashqi iqtisodiy tebranishlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi. ISO 31000 standartida risklarni tizimli boshqarish korxonalar barqarorligini ta’minlashning asosiy omili sifatida belgilangan [6].

4. Asosiy ilmiy natijalar

Olib borilgan tahlil asosida quyidagi natijalarga erishildi:

1. Qurilish materiallari sanoatida inqiroz shakllanishi ko‘pincha tashqi iqtisodiy omillardan boshlanib, ichki moliyaviy muammolar orqali chuqurlashadi.

2. Inqirozning dastlabki bosqichlari moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasidagi salbiy o‘zgarishlar orqali aniqlanishi mumkin.

3. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni alohida emas, balki bozor omillari va boshqaruv samaradorligi bilan birgalikda tahlil qilish inqirozni erta aniqlash imkonini beradi.

4. Risklarni muntazam monitoring qilish va moliyaviy intizomni saqlash inqiroz xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur tarmoqda inqiroz birdaniga yuzaga keladigan hodisa emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan va ichki hamda tashqi omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab jarayondir.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, qurilish materiallari sanoati korxonalarida yuqori kapital sig‘imi, energiya va xomashyo resurslariga kuchli bog‘liqligi hamda qurilish bozorida talab o‘zgarishlariga sezgirliigi bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur tarmoqda tashqi iqtisodiy omillar — energiya

narxлари, inflyatsiya darajasi, kredit resurslari qiymati va investitsiya faolligining pasayishi — inqiroz shakllanishining dastlabki bosqichini boshlab beradi. Biroq, tashqi omillar o‘z-o‘zidan inqirozga olib kelmaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inqirozning chuqurlashuvi ko‘proq ichki boshqaruv omillari bilan bog‘liq. Moliyaviy rejalashtirishning yetarli emasligi, xarajatlar ustidan nazoratning sustligi, pul oqimlarini boshqarishdagi kamchiliklar va strategik qarorlarning samarasizligi tashqi iqtisodiy bosimni kuchaytiradi va korxonalar barqarorligini zaiflashtiradi.

Moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili asosida quyidagi xulosaga kelindi: qurilish materiallari sanoatida inqirozning dastlabki belgilarini likvidlik darajasining pasayishi, rentabellikning qisqarishi, ishlab chiqarish tannarxining oshishi va qarzdorlikning ortishi orqali aniqlash mumkin. Mazkur ko‘rsatkichlar dinamikasini muntazam monitoring qilish inqirozni erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy va milliy ilmiy yondashuvlar taqqoslanishi natijasida quyidagi ilmiy xulosa shakllantirildi: xorijiy adabiyotlarda inqiroz ko‘proq strategik va tashkiliy jarayon sifatida talqin etilsa, milliy tadqiqotlarda moliyaviy barqarorlik va likvidlik muammosi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida esa mazkur ikki yondashuvni integratsiyalashgan holda qo‘llash samaraliroq natija beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inqirozni faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash yetarli emas. Bozor sharoiti, energiya xarajatlari, investitsiya faolligi va boshqaruv samaradorligini kompleks tahlil qilish zarur. Aynan tizimli yondashuv qurilish materiallari sanoatida barqaror rivojlanishni ta‘minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

Umuman olganda, qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish jarayonini o‘z vaqtida aniqlash va baholash korxonaning moliyaviy barqarorligini saqlash, risklarni kamaytirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Moliyaviy ko‘rsatkichlarni muntazam monitoring qilish tizimini joriy etish. Korxonalarda likvidlik, rentabellik va qarzdorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha oylik tahlil tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.
2. Pul oqimlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Aylanma mablag‘larni samarali taqsimlash va qisqa muddatli majburiyatlarni rejalashtirish orqali likvidlik xavfini kamaytirish lozim.
3. Xarajatlarni optimallashtirish dasturlarini ishlab chiqish. Energiya va xomashyo xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha texnologik modernizatsiya va energiya tejankor yechimlarni qo‘llash tavsiya etiladi.
4. Risklarni boshqarish tizimini joriy etish. ISO 31000 talablari asosida risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish mexanizmini korxonalar boshqaruv tizimiga integratsiya qilish zarur.
5. Strategik rejalashtirishni kuchaytirish. Qurilish bozorida talab o‘zgarishlarini prognoz qilish va investitsion siyosatni moslashtirish orqali tashqi omillarga moslashuvchanlikni oshirish lozim.
6. Qarz yuklamasini nazorat qilish. Kredit resurslaridan oqilona foydalanish va moliyaviy mustaqillik darajasini saqlash korxonalar barqarorligini ta‘minlaydi.
7. Ichki audit va boshqaruv nazoratini kuchaytirish. Moliyaviy intizomni ta‘minlash va samarasiz xarajatlarni aniqlash orqali inqiroz xavfini kamaytirish mumkin.
8. Bozor diversifikatsiyasini kengaytirish. Mahsulot assortimentini kengaytirish va yangi savdo bozorlariga chiqish orqali talab pasayishining salbiy ta‘sirini yumshatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Altman E.I. Financial ratios, discriminant analysis and the prediction of corporate bankruptcy // The Journal of Finance. – 1968. – Vol. 23. – № 4. – P. 589–609. – DOI: <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1968.tb00843.x>
2. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory & Practice. – 15th ed. – Boston: Cengage Learning, 2016. – 1184 p.
3. Bundy J., Pfarrer M.D., Short C.E., Coombs W.T. Crises and crisis management: Integration, interpretation, and research development // Academy of Management Annals. – 2017. – Vol. 11. – № 1. – P. 166–202. – DOI: <https://doi.org/10.5465/annals.2015.0134>

4. Hällgren M., Wilson T.L. Crisis management in construction projects // International Journal of Project Management. – 2008. – Vol. 26. – № 8. – P. 830–838. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2007.11.003>
5. Pearson C.M., Clair J.A. Reframing crisis management // Academy of Management Review. – 1998. – Vol. 23. – № 1. – P. 59–76. – DOI: <https://doi.org/10.5465/amr.1998.192960>
6. Ross S.A., Westerfield R., Jordan B.D. Corporate Finance. – 12th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 992 p.
7. ISO 31000:2018. Risk management – Guidelines [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://www.iso.org/iso-31000-risk-management.html>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Sanoat va qurilish ko‘rsatkichlari [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://stat.uz>
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhlari va statistik ma’lumotlar [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://cbu.uz>
10. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Sanoat energiya iste’moli va tariflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: <https://minenergy.uz>
11. Lengnick-Hall C.A., Beck T.E., Lengnick-Hall M.L. Developing a capacity for organizational resilience through strategic human resource management // Human Resource Management Review. – 2011. – Vol. 21. – № 3. – P. 243–255. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.hrmr.2010.07.001>
12. Coombs W.T. Ongoing crisis communication: Planning, managing, and responding. – 4th ed. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2015. – 240 p.
13. Damodaran A. Applied Corporate Finance. – 4th ed. – Hoboken: Wiley, 2014. – 624 p.
14. Республика Узбекистан. Закон «О банкротстве» [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://lex.uz>
15. G‘ulomov S.S., Xolbekov S.K. Korxonalar iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 320 b.